



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



**№10**  
**2025**

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 322 sahifa,  
3-oktyabr, 2025-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### **EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### **DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### **EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayeva X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo‘yicha  
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

The Use of Innovative Pedagogical Technologies in the Development of Critical Thinking .....	16
<i>Gulnar Atakhanova Orinbaevna</i>	
Current Aspects of Designing and Implementing Extracurricular Educational Activities at the Primary General Education Level.....	20
<i>Amankosova Dinara Gabitovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tizimida tarbiyachi shaxsiyati va kasbiy mahorati shakllanishining nazariy asoslari....	24
<i>Axmadaliyeva Moxlaroy To'xtapolatovna</i>	
Pedagogical Model and Stages of Teaching Subjects Through a Project-Based Approach .....	28
<i>Bannayev Qosimjon</i>	
Lotin tili va zamonaviy tibbiy terminologiya: tarixi, vazifasi va amaliy ahamiyati .....	31
<i>Eshmurodova Shirin Oybekovna</i>	
Motor alaliyaning nonutqiy simptomatikasi .....	34
<i>Isayeva Mushtariy Alisher qizi</i>	
Talabalar etnomadaniy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik omillari .....	38
<i>Isomiddinov Asliddin Baxriddin o'g'li</i>	
Texnologiya darslarida o'quvchilarning texnik savodxonligini robototexnika elementlari asosida rivojlantirish.....	41
<i>Jabborova Umida</i>	
Fizika fanini mutaxassislik fanlari integratsiyasi asosida o'qitishda bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari .....	45
<i>Xayrullayev Asliddin Isatullayevich</i>	
Talaba tomonidan mutaxassislik tilini o'zlashtirishda monologik nutqni o'rgatishning samarali usullari masalasi haqida.....	51
<i>Karimov N. M.</i>	
Zamonaviy pedagog kadrlar tayyorlashda kasbiy motiv va motivatsiyaning o'rni .....	54
<i>Melikova Elnora Shuxratovna</i>	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlashda pragmatik kompetensiyaning roli.....	58
<i>Mustafayeva Nilufar Ulashovna</i>	
O'quvchilarda iqtisodiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik strategiyalari .....	62
<i>Nishonova Dilafuz</i>	
Computer-Based Formative Assessment: Advantages and Challenges in Teaching English to High School Students .....	66
<i>Obidjonova Shokhista Bakhtiyorovna</i>	
Metata'lim texnologiyalari asosida bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarini tayyorlash tizimini takomillashtirish.....	70
<i>O'rolboyeva Durdona Sayfiddin qizi</i>	
Sun'iy intellekt asosidagi darslarning an'anaviy darslarga nisbatan samaradorligini qiyosiy tahlil qilish.....	73
<i>Rasulev Bobirjan Atxamovich</i>	
Pedagogik faoliyatda pedagogning kasbiy taraqqiyoti motivatsiyasining psixologik xususiyatlari .....	78
<i>Rustamova Surayyo Shaxobiddinovna</i>	
Innovatsion kompetentlik tushunchasi va uning ilmiy-pedagogik asoslari.....	84
<i>Soliyev Eliyor Ravshan o'g'li</i>	
Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar eshituv idrokini o'yinlar yordamida rivojlantirishning samarali usullari .....	88
<i>Xalilova Shahnoza</i>	
Zamonaviy ta'limda kommunikativ kompetensiyaning o'rni va ahamiyati.....	92
<i>Yaqubova Nigoraxon Ibrohimjon qizi</i>	
Soliq yuki – mamlakat soliq soliq tizimining asosiy mezonidir .....	97
<i>Suyunov Otabek Shuxrat o'g'li</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish va takomillashtirish yo'llari .....	101
<i>Ibodova Sarvinoz Sayfilloyevna</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida hospital pedagogika fanini o'qitishning dolzarb masalalari va uning uslubiy ta'minoti .....	106
<i>Inogamova Dilfuza Rahmatullaevna</i>	



Chizma geometriya va kompyuter grafikasi: an'anaviy fan va zamonaviy texnologiyaning uyg'unlashuvi .	111
<i>Raximov A. M., Tairova N. S., Sabirova D. U., Xasanova S. T., Tashpulatov R. X.</i>	
Геймификация в обучении английскому языку на начальном этапе обучения .....	114
<i>Курбанова Назира Низомиддиновна</i>	
Talabalarda tanqidiy va evristik fikrlashni shakllantirishda raqamli texnologiyalarning o'rni .....	117
<i>Adjdiyev Nayrullo Nazrulloevich</i>	
Konstruktiv yondashuv asosida tabiiy fanlar (science)ni o'qitish metodikasi.....	122
<i>Amirullayeva Barno Abdulhaqovna</i>	
Kimyo o'qitishda o'quvchilarning ijodiy faoliyatini shakllantirishning tajriba-sinov natijalari.....	126
<i>Artiqov Maqsud Bahodirovich, Babanazarova Ayzada Omirbaevna</i>	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni bilingvist sifatida shakllantirishda til o'rganish ko'nikmalari va kompetentsiyalarining rivojlanishi .....	131
<i>Axmadjonova Gulira'no Muxtorjon qizi</i>	
Talabalarning ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirishda kooperativ ta'limning metodik yondashuvlari.....	135
<i>Botiraliyeva Gulobar Mahamadismoil qizi</i>	
Talabalarni intellektual faoliyatga tayyorlashda ijtimoiy sherikchilikning pedagogik va metodik asoslari .....	139
<i>Dilbarjonov Avazbek Ravshanbek o'g'li</i>	
Teacher-Centered and Child-Centered Methods in Early Childhood Education: Insights From Finland and Uzbekistan .....	143
<i>Djaparova Gulnoza</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "Metodik mahorat kuni" va "Metodik mahorat soati"ni tashkil etish .....	150
<i>Do'stov Davron Zulhaydarovich</i>	
Theoretical, Methodological, and Practical Factors of Differentiated Education .....	155
<i>Ergash Shonazarovich Khasanov</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual qobiliyatini rivojlantirishda kognitiv yondoshuv .....	160
<i>Gulbahor Xamidova</i>	
Mustaqil ta'lim – mustahkam bilim.....	164
<i>Halima Shukurova Sunatullayevna</i>	
Integrating Google Classroom and Project-Based Learning for Enhanced Synchronous and Asynchronous Education.....	168
<i>Inomkhojaeva Shodiyakhon Abdukodirkhoja qizi</i>	
O'quvchilarning innovatsion fikrlash ko'nikmalarini takomillashtirishning nazariy asoslari.....	174
<i>Mamadaliyev Axadjon G'aniboyevich</i>	
Hududiy rivojlanishda innovatsion yondashuvlarni strategik boshqaruvga integratsiya qilish yo'llari.....	177
<i>Mo'minov Fazliddin Xusniddin o'g'li</i>	
O'rta yoshdagi ayollarda harakat faoliyatini rivojlantirishda milliy o'yinlarning pedagogik ahamiyati .....	184
<i>Mustafoev Sherali</i>	
Pedagogical and Psychological Foundations of Developing Higher-Order Thinking Skills in Students.....	188
<i>Nasimova Zarina Isomiddin kizi</i>	
Pedagogik ijodkorlikning kasbiy professionallikda namoyon bo'lish xususiyatlari.....	193
<i>Numonova Dildor Umurzoqovna</i>	
Ko'zi oqiz boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentsiyasini o'rganishning nazariy asoslari .....	196
<i>Qarshiboyev Asliddin</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish masalalari.....	200
<i>Qilichova Marxabo Xudayqulovna</i>	
The Transformation of Existential Thought in British Literature: Iris Murdoch's Philosophical Humanism and the Reinterpretation of Freedom .....	204
<i>Rahmonqulova Zarnigor Nasimjon qizi</i>	
Sportchilarning elektron platformalardan foydalanishning metodik tahlili .....	209
<i>Saydullayev Zafar Erkinovich</i>	
Adabiy ta'limda estetik tarbiya .....	216
<i>Sharipov Elmurod Sa'dulla o'g'li</i>	
O'qituvchi-trenerning ko'p qirrali kasbiy-pedagogik funksiyalari .....	220
<i>Sulaymonov Jaxongir Solijonovich</i>	
Uzluksiz kasbiy rivojlanishda art-pedagogikaning o'qituvchilar hissiy farovonligiga ta'siri .....	223
<i>Suvanova Kamola Raimqul qizi</i>	

Raqamlashtirish muhitida umumta'lim maktablarida ta'lim sifatini oshirish .....	226
<i>Xamidova Komila Maxmudovna</i>	
Oliy ta'limda kvest texnologiyasi yordamida fizika fanining murakkab tushunchalarini o'zlashtirish samaradorligini oshirish metodikasi.....	231
<i>Yo'ichiyev Shaxriyor Xusanovich, O'rinboyeva Kumushoy Sultonbek qizi</i>	
Совершенствование профессиональных компетенций будущих инженеров на основе интегративного подхода .....	235
<i>Умарова Гулчехра Абитовна</i>	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning aqliy qobiliyatining psixologik xususiyatlari .....	238
<i>Alanazarova Sholpan Artikbaevna, Artiqbaeva Miyassar Jumanazarovna</i>	
Biologiya ta'limida innovatsion metodlarni joriy etishda ta'lim menejmentining roli.....	241
<i>Allayorova Maloxat Normaxmat qizi</i>	
Integrating Innovative Technologies for the Enhancement of Speech and Communication Skills Among Learners With Intellectual Disabilities in Uzbekistan: Pedagogical Approaches and Developmental Outcomes .....	244
<i>Donisheva Gulruy Akhrorkulovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilar o'qish savodxonligini rivojlantirishga metodik jihatdan tayyorlash.....	247
<i>Doniyarov Mavlonbek Arabovich</i>	
Kimyoviy birikmalarda bog'lar sonini hisoblashning yangi matematik usullari.....	252
<i>Ergashev Vahob Ergashevich</i>	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida .....	257
<i>G'aniyeva Maftuna Abduaziz qizi</i>	
Pedagogika oliy o'quv yurtlarida steam fanlarini raqamli texnologiyalar asosida o'qitishning metodik asoslari .....	261
<i>Jamolova Sitara Muzaffar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik tafakkurini rivojlantirishda didaktik o'yinlar va interaktiv metodlardan foydalanish samaradorligi .....	264
<i>Mamadiyurov Jamol</i>	
Zamonaviy ta'lim jarayonida talabalar mustaqil faoliyatini rivojlantirishda pedagogik yondashuvlar.....	268
<i>Mamayusupova Nafisa Abdulatifovna</i>	
Para yengil atletikachilarda nayza uloqtirish texnikasini takomillashtirish uslubiyati .....	271
<i>Qiyomova Shohsanam Yarash qizi</i>	
Difficulties in Enhancing Communicativeness of Pre-Service English Teachers.....	275
<i>Kurbonova Maftuna Fakhriddinovna, Mirzayeva Gulshan Azamatovna</i>	
Principles of Teaching Basic Foreign Language Skills (EFL) .....	278
<i>Samandarova Gulsara Ismatilloevna</i>	
O'quvchilarning innovatsion ta'lim muhitida tayanch kompetensiyalarini shakllantirishning dolzarbligi .....	282
<i>Toshpulatova Farida Radjabovna</i>	
Корпоративная культура педагогов и внутренняя стабильность ДОО .....	286
<i>Буранова Шохноза Абдуразаковна</i>	
Развивать личностные качества учащихся на уроках географии.....	290
<i>Шадиева Нигора Шариповна</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida oliy ta'lim sifatini oshirishda innovatsion yondashuvlar .....	295
<i>Baytileuova Gulnaz Quralbay qizi</i>	
Yangi avlod pedagoglarini tayyorlash: kompetensiyalar va qadriyatlarining roli.....	298
<i>Ro'ziboyeva Ma'mura Abdunabiyevna</i>	
Astronomiya fanini o'qitishda integrativ yondashuvdan foydalanib o'qitishning ta'lim tizimidagi o'rni .....	301
<i>Barakayeva Sarvinoz To'iqunovna</i>	
Alohida e'tiborga muhtoj bolalar bilan ishlashda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash.....	305
<i>Usmonov Salohiddin Dushan o'g'li, Namozova Sevinch Asqar qizi</i>	
Ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalashda pedagogik qadriyatlarining ustuvorligi.....	310
<i>Jumayeva Gulnara Tursunpulatovna</i>	
Talabalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlarini maqsadli boshqarishga tayyorlashning nazariy asoslari .....	314
<i>Mahmudova Zulfiya Xomitovna</i>	
Pedagogical Methodology Improve Students' Professional Mobility in Acquisition of Specialty.....	319
<i>Khidirova Muhabbat Murodillayevna</i>	

# ADABIY TA'LIMDA ESTETIK TARBIYA

Sharipov Elmurod Sa'dulla o'g'li  
ToshDO'TAU tayanch doktranti

**Annotatsiya:** Maqolada umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarning estetik tarbiyasini shakllantirish, ularning ijodkorligini rivojlantirish va bugungi ta'lim tizimining asosiy maqsadi bo'lgan komil insonni tarbiyalashda san'at namunalarining o'rni tahlil qilingan. Shuningdek, fan o'qituvchisiga qo'yiladigan talablar, fanlararo aloqalar, adabiyot darslarida tasviriy san'at hamda kinomatografiya namunalaridan foydalanishning samaradorligi yoritilgan. Abdulla Qahhorning "O'g'ri" hikoyasi misolida qahramon Qobil boboning ruhiy kechinmalarini tasviriy san'at vositasida o'quvchiga yetkazish masalasi ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** adabiyot, san'at, komil inson, ta'lim, tarbiya, o'quvchi.

**Abstract:** The article analyzes the formation of aesthetic education among students in the general secondary education system, the development of their creativity, and the role of art in educating a well-rounded personality, which is the primary goal of modern education. Particular attention is paid to the requirements set for teachers, interdisciplinary connections, and the effectiveness of using visual arts and cinematography in literature lessons. Using Abdulla Qahhor's story "The Thief" as an example, the study discusses how visual arts can better convey the spiritual experiences of the character Grandpa Qobil to students.

**Key words:** literature, art, well-rounded personality, education, upbringing, student.

**Аннотация:** В статье рассматривается формирование эстетического воспитания учащихся в системе общего среднего образования, развитие их творческих способностей и роль произведений искусства в воспитании гармонично развитой личности, что является основной целью современного образования. Особое внимание уделяется требованиям, предъявляемым к преподавателю, вопросам межпредметных связей, а также эффективности использования произведений изобразительного искусства и кинематографии на уроках литературы. На примере рассказа Абдуллы Каххара "Вор" анализируется, как с помощью изобразительного искусства можно глубже передать духовные переживания персонажа Кабиля бабо.

**Ключевые слова:** литература, искусство, гармоничная личность, образование, воспитание, ученик.

## KIRISH

Mustaqillik davri maktab adabiy ta'limida o'quvchi shaxsining har bosqichdagi ruhiy, jismoniy va intellektual xususiyatlari inobatga olingan holda uni mustaqil fikrlashga yo'naltirish, ta'lim-tarbiya kechimida uning individual xususiyatlarini hisobga olish, ma'naviyatini sog'lomlashtirishga ustuvor e'tibor qaratish, shakllanish jarayonida o'quvchining o'zi ishtirok qilishiga erishish, unga badiiy-estetik kashf etish lazzatini tuydirish, ta'lim-tarbiya kechimida pedagogik hamkorlik bo'lishini ta'minlash singari tamoyillarga amal qilish talab etilmoqda.

Har bir o'quvchi o'z navbatida jamiyatning a'zosi hamdir. U jamiyatning boshqa a'zolari bilan muloqotga kirishishi, o'z fikr-mulohazalarini ularga go'zal nutq bilan yetkaza olishi lozim. Shu bilan birga, faqatgina notiq bo'lishning o'zi bugungi, axborot haddan tashqari ko'p bo'lgan zamonda fikrning suhbatdoshga ta'sir qilishiga kamlik qilishi, uni navbatdagi ma'lumotlar oqimidek qabul qilinishiga sabab bo'lishi mumkin. Hayrat hisi kamayib borayotgan bir vaqtda jamiyat a'zolari o'rtasidagi muloqotlarda faqatgina axborot berish kamlik qilmoqda, endilikda har bir so'z suhbatdoshning qalbiga yetib boradigan shaklda, ma'lum darajada hissiy yuklamaga ham ega bo'lishi talab etilmoqda. Shu sababdan, o'quvchilarni inja tuyg'ularni ilg'ab oladigan, ta'sirchan, go'zal qalb sohibi qilib tarbiyalash muhim.



## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Adabiy ta'limda estetik tarbiyaning o'rnini haqida ko'plab olimlar tadqiqot olib borgan. Qozoqboy Yo'ldosh o'zining "Jilovlanmagan tafakkur mahsuli" asarida ta'lim jarayonida shaxsni ijodkor, mustaqil qaror qabul qila oladigan va insonparvarlik ruhida tarbiyalash zarurligini alohida ta'kidlaydi. Mahmudov B. "Portret yaratish mahorati" kitobida portret san'ati o'quvchida estetik didni shakllantirishda samarali vosita ekanligini asoslab bergan. Hasanboeva O.ning "Maktabgacha ta'lim pedagogikasi" asarida esa estetik tarbiyaning ilk yoshdan boshlanishi, bu jarayonda san'atning turli ko'rinishlari, xususan tasviriy san'at va badiiy adabiyotning o'quvchi tafakkurini rivojlantirishdagi o'rnini yoritilgan. Shuningdek, Karimova V. "Psixologiya" kitobida estetik idrokning psixologik mexanizmlari izohlanib, o'quvchilarda go'zallikni his etish, u orqali ijodkorlik va ma'naviy dunyoni boyitishning ahamiyati ko'rsatib berilgan. Ushbu tadqiqotlar adabiy ta'limda estetik tarbiya o'quvchilarning nafaqat bilimini, balki ruhiy va axloqiy kamolotini ham ta'minlashda muhimligini ko'rsatadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda adabiy ta'lim jarayonida estetik tarbiyaning o'rnini aniqlash maqsadida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, pedagogik kuzatuv va suhbat usullari qo'llanildi. O'quvchilarning estetik idroki va badiiy tafakkurini shakllantirish jarayonini o'rganishda adabiyot darslarida san'at namunalaridan foydalanish amaliyoti kuzatildi va o'qituvchilar hamda o'quvchilar bilan suhbatlar olib borildi. Olingan ma'lumotlar taqqoslash va kontent-tahlil usullari yordamida qayta ishlanib, mavjud ilmiy-nazariy yondashuvlar bilan solishtirildi. Natijada, adabiy ta'limda estetik tarbiyaning samaradorligini belgilovchi omillar aniqlab chiqildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Bugun ta'lim tizimi sotsialistik ta'lim-tarbiya tizimidan farqli o'laroq mutaxassis emas, shaxsni tarbiyalashni birinchi o'ringa qo'yimoqda. O'z ishini puxta biladigan, lekin ijodkor bo'lmagan, yangi g'oyalar yaratolmaydigan, insonparvarlik fazilatlariga bilan "qurollanmagan", bir xil qolipda tarbiyalangan mutaxassislar tayyorlash bugungi pedagogika talablariga to'g'ri kelmaydi. Bugungi pedagogika voqealarga tezkor munosabat bildiriladigan, har bir hodisaga insonparvarlik rakursidan nazar tashlay oladigan, alohida shaxslarni tarbiyalashni o'z oldiga maqsad qilib oldi. Professor Qozoqboy Yo'ldosh aytganidek: "... pedagogikani berilgan vazifalarni sidqidildan o'zlashtirgani va toqatli bo'lgani uchuniga 'a'lo' bahoga o'qiydigan tarbiyalanuvchilarni tayyorlash qoniqtirmaydi. Yangicha pedagogika o'z oldiga o'zi vazifa qo'ya oladigan, biror qarorga kelishda birovning og'ziga qarab turmaydigan, o'zini o'zi rivojlantiradigan, o'z faoliyatini o'zi nazorat qila biladigan yorqin shaxslik xususiyatlarini shakllantirish masalalari bilan shug'ullanadi. Hozirgi zamonning muammolarini hal etish uchun bilimning o'zi yetarli emasligi, hozir tarbiya muassasalarida shakllantirilayotgan shaxslar voqealikka ijodiy nazar bilan qaray bilishi, quyushqondan tashqarida fikrlay olishi muhimligi, xullaski, tarbiyalanuvchilarda kuchli shaxslik sifatlarining hosil qilinishi yangi pedagogik fikr uchun birinchi darajali ahamiyatga egadir" [Qozoqboy Yo'ldosh, 2023-27].

Bu sifatlarga ega shaxsni tarbiyalash uchun esa, avvalo, insonni boshqa yaratilardan farqlab turadigan qalbini go'zal hislar bilan to'ldirish, san'atga oshno qilish, boshqalar kechinmalariga nisbatan sezuvchan qilib tarbiyalash lozim. Adabiyot darslarida san'at namunalaridan foydalanish mana shu maqsadga xizmat qiladi. Adabiyot va san'at bir-biriga yaqin. Zero, adabiyot – so'z san'ati deyilishi ham bejiz emas. Adabiyot va san'atning istalgan turida obyekt inson hisoblanadi. Rassom mo'yqalam yordamida ifodalagan kechinmalarni, haykaltarosh toshlar yordamida ochib bersa, shoir-yozuvchi so'zlar vositasida buni bayon etadi. Barcha go'zal san'atlar insonni, uning kechinmalarini o'z uslubida tasvirlashga harakat qiladi. Manzil yagona – yo'llar turfa.

Shundan kelib chiqib, adabiyot darslarini o'qitishda san'at namunalaridan foydalanish o'quvchilarning estetik didini oshirish bilan birgalikda ularning ijodkorlik xususiyatlarini rivojlantirishga, biror voqea-hodisaga turli nigohlarda qarashga o'rgatadi. Shuningdek, o'rganilayotgan asar mohiyatini yaxshiroq ochib berishga ham xizmat qiladi. Bugungi kunda tasviriy san'at namunalari pedagogik amaliyotda keng qo'llaniladi. Adiblar hamda ayrim asar qahramonlarining portretlari, biror badiiy asar mazmuni asosida ishlangan sahna asarlari, ijodkorlarning qiyofalari singari tasviriy san'at namunalaridan o'quv mashg'ulotlarida foydalanilmoqda. Lekin san'atning boshqa turlari – kinematografiya, haykaltaroshlik, hunarmandchilik kabi san'at namunalaridan unumli foydalanilmoqda, deb bo'lmaydi.

"Adabiyot" darsliklarida ayrim asarlar mazmuni yuzasidan chizilgan rasm, asar asosida ishlangan kino, qahramonlarning haykallari ko'rgazmali qurol sanaladi. O'qituvchi ularni e'tiborsiz qoldirib ketmay, o'quvchilarning diqqatini tortib, manzaradagi tasvir, kinodan parcha yoki haykaltaroshlik namunasidan o'rganilayotgan asar mazmunini teranroq o'zlashtirishda foydalanishi lozim.

Buning uchun adabiyot muallimi yuqoridagi san'at namunalarning ifodasiga qarab, ular yuzasidan savollar tuzishi va o'quvchilarni ular vositasida o'rgatilayotgan asar mazmuniga chuqurroq kirishga yo'naltirishi kerak. Bunda turli metodlardan foydalanish mumkin. Masalan, "taqqoslash" metodi yordamida biror asar tahlilida unga ishlangan kinodan parcha qo'yib berish va o'quvchilardan asarni o'qish jarayonida hamda kinodan parchani ko'rgandagi xulosalarini gapirib berish orqali ulardagi umumiy va farqli jihatlar haqida so'zlab berish so'ralishi mumkin. O'quvchilar san'at namunalari bilan badiiy asar matnini chog'ishtirish orqali bu boradagi tushunchalarini kengaytirib boradilar.

"Fikriy hujum" metodi orqali esa, o'quvchilarga asar qahramoni yoki voqealar sodir bo'lgan joyni qanday tasavvur qilishi haqida so'rash va buni rasm chizish orqali ifodalash topshiriq sifatida berilishi mumkin. Bu o'quvchilarda badiiy fikrlash va uni turli vositalar yordamida ifodalay olish ko'nikmasining yaxshiroq shakllanishiga xizmat qiladi.

"Suhbat" metodi orqali bir g'oyani aks ettirgan ikki xil asar, masalan, vatan haqida yozilgan she'r va vatan tasvirlangan surat haqida fikr almashish, ularning bir-birini to'ldiruvchi va farqli jihatlar haqida mulohaza yuritish orqali o'quvchilarda estetik didni oshirish mumkin.

Badiiy asarlarni o'rganayotganda san'at namunalaridan foydalanish yaxshi samara beradi, o'quvchilarda estetik did shakllana boradi. O'quvchining estetik faoliyatini faollashtirish, didini o'stirish orqali uning shaxsini kamolot sari yo'naltirish esa adabiy ta'limning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Yangi avlod darsliklarida alohida ruknda tasviriy san'at namunalari berilganligi ham o'qituvchilarda tasviriy san'at namunalari bilan ishlash malakasi bilan birga boshqa sohalaridan ham ma'lum darajada xabardor bo'lishni talab qilmoqda. "Chunki har bir badiiy jihatdan mukammal portret yakka shaxsning shunchaki ko'rinishi emas, balki bu shaxsning kasb-kori, millati, davri, ma'naviy qiyofasi, orzu-umidlarining ifodasi bo'ladi" [Mahmudov B., 2010-66].

O'quvchilarda adabiyot fani orqali nafaqat yozuvchi va shoirlar bilan tanishish, badiiy asarni o'rganish, balki asar qahramonlarini yaqindan bilish, ular haqidagi ma'lumotlardan tortib, xarakteri va ichki dunyosini his qilish kabi ko'nikmalarni shakllantirish, shu bilan birga ularni adabiyot darslarida ijodkorlikka yo'naltirish lozim.

Ushbu jarayonni darsda so'z va san'atning boshqa namunalari yordamida amalga oshirish mumkin. Masalan, Abdulla Qahhorning "O'g'ri" hikoyasidagi ho'kizi o'g'irlangan Qobil boboning tasvirini olaylik: "Qobil bobo yalang bosh, yalang oyoq, yaktakchan og'il eshigi yonida turib dag'-dag' titraydi, tizzalari bukilib-bukilib ketadi, ko'zlari jovdiraydi, hammaga qaraydi, ammo hech kimni ko'rmaydi".

Sheva xususiyatlaridan kelib chiqib, Toshkent va Farg'ona vodiysining ayrim joylaridagi o'quvchilar va vohalik o'quvchilar Qobil boboning ushbu holatini turlicha tasavvur qilishi mumkin. Chunki ba'zi joylarda "yaktakchan" so'zi yaktak kiygan ma'nosida qo'llanilsa, boshqa joylarda yaktak kiyimagan shaklida ishlatiladi. Shuningdek, qishloqda ulg'ayayotgan o'quvchilar uchun og'ilni, undan ho'kiz sig'adigan qilib ochilgan teshikni tasavvur qilish qiyinchilik tug'dirmaydi, ammo umrida bu narsalarni ko'rmagan o'quvchilarga ularni tasavvur qilish tabiiy ravishda qiyin bo'ladi.

Agar darsda shu vaziyat tasvirlangan rasmdan foydalanilsa, holat barcha uchun birdek ayon bo'lishi bilan birga, yagona davlatidan ayrilgan Qobil boboning ruhiy holatini yaxshiroq anglash, oyoqlari dag'-dag' titrashi bejiz emasligini his qilish, vaziyatning jiddiyligini yaxshiroq baholashga yordam beradi.

Yoki "Shum bola" qissasidagi bozor tasvirini faqat kitobdagi bayon bilan chegaralamasdan, kinodan olingan parchadan foydalanish orqali o'qitish bolalarda XX asr boshidagi bozorlar, insonlarning turmush tarzi, kiyinish madaniyati, muomala uslubi bilan yaqindan tanishish, g'ala-g'ovurli sharq bozorida chirigan olmalarini sotishga urinayotgan Qoravoyning holatini his qilishga va u yashagan muhit haqida tasavvur uyg'otishga yordam beradi.

Fikrlarimizni umumlashtirib aytish mumkinki, adabiyot darsliklarida yozuvchi va shoirlar hamda ularning asarlarini o'rganishda fanlararo integratsiyadan, jumladan san'at namunalaridan foydalanish o'quvchilarning estetik didini oshirishda muhim hisoblanadi. Ijodkor portreti orqali uning o'y-kechinmalari, yashagan davri haqida kengroq ma'lumot olish, asarga ishlangan miniaturalardan foydalanish orqali uning mohiyatini yaxshiroq tushunish va his qilish ko'nikmalarini shakllantirish o'quvchilarda tahliliy fikrlashni rivojlantiradi.

Fitrat shunday deydi: "Tirik bir kishning bir ko'p tilaklari, istaklari, umidlari, ehtiyojlari bo'ladi. Shularga erishsa – sevinadir, erishmasa – qayg'uradir. Odam o'zining tegrasidagi turli voqealardan, bo'lib turgan ishlardan, turli ko'rinishlardan, boshqa kishilarning baxtli-baxtsiz voqealaridan ham ta'sirlanadir: shodlanadir yo qayg'uradir". Bu orqali u faqatgina odamlarga xos bo'lgan – boshqa kishilarning holatidan xursand yoki xafa bo'la olishni tirik insonlik belgisi sifatida talqin qiladi.

Adabiyot va san'atning uyg'unlashuvi ana shu tiriklikning asosi – inson qalbini go'zalroq qilishga, go'zalikka oshno etishga yordam beradi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, adabiyot inson kechinmalarini so'z orqali, tasviriy san'at bo'yoqlar yordamida, haykaltaroshlik toshlari bilan ifodalasa, kino san'ati uni insonlar yordamida yuzaga chiqaradi. Barcha san'at namunalarning pirovardida inson – uning his-tuyg'ulari turganligi, adabiy ta'limda san'at namunalaridan foydalanishning komil insonni tarbiyalashdagi o'rni naqadar muhimligini ko'rsatadi.



## XULOSA VA TAKLIFLAR

Adabiy ta'lim jarayonida estetik tarbiya o'quvchilarda nafaqat badiiy didni shakllantiradi, balki ularning ruhiy-ma'naviy dunyosini boyitib, ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantiradi. San'at namunalaridan samarali foydalanish o'quvchilarning asar mohiyatini chuqurroq anglashiga, ularni go'zallikni his etishga va insonparvarlik ruhida tarbiyalanishiga xizmat qiladi. Shu bois, adabiyot darslarida tasviriy san'at, kinematografiya va boshqa ijodiy vositalarni kengroq qo'llash, o'quvchilarda tahliliy fikrlash va ijodiy izlanishga yo'naltirilgan metodlarni kuchaytirish, shuningdek, o'qituvchilarning estetik-pedagogik tayyorgarligini oshirish maqsadga muvofiqdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qozoqboy Yo'ldosh. Jilovlanmagan tafakkur mahsuli. – Toshkent: Tafakkur nashriyoti, 2023. – 628 b.
2. Mahmudov B. Portret yaratish mahorati. – Toshkent: Xalq ta'limi, 2010.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №10**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.